

Abdurashid M. ASKAROV,
*Lecturer of the al-Azhar Department
for Arabic Language and Literature,
International Islamic Academy of Uzbekistan
Doctor of philosophy (PhD) in philology.
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: Mustarib@list.ru*

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-2/11

**BALOG‘AT ILMINING
RIVOJLANISHIDA SA‘DUDDIN
TAFTAZONIY ASARLARINING O‘RNI**

**THE ROLE OF SA‘DUDDIN
TAFTAZANI’S WORKS IN THE
DEVELOPMENT OF ARABIC
RHETORIC (BALAGHA)**

**ТРУДЫ СААДУДДИНА ТАФТАЗАНИ
И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ АРАБСКОЙ
РИТОРИКИ (ИЛМ АЛЬ-БАЛАГА)**

KIRISH

Qur‘on, hadis va adabiy asarlar balog‘atini tadqiq etishda balog‘atga oid asarlar ilmiy-nazariy manba vazifasini o‘taydi. Bugungi kunda olimlar tomonidan «Muṭawwal», «Muḥtasaru-l-ma‘āniy», «Šarḥu-l-miftāḥ» asarlari tekstologiyasi, tarkibiy tuzilishi, mazkur asarlardagi balog‘at qoidolari hamda atamalarining qo‘llanilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar Taftazoniyning balog‘at ilmining nazariy qoidalarini ishlab chiqishda o‘z uslubiga ega ekanini ko‘rsatadi. Asarlarda itnob, ištiora, muḥassanat badi‘iyya, tashbeh, kinoya, qasr, iltifot uslublarida ilgari surilgan nazariy qarashlar sohada olib borilayotgan tadqiqotlar salmog‘ini oshirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Qur‘on e‘jozini o‘rganish va adabiy tanqid faoliyatining kengayishi tufayli balog‘at ilmi jadal rivojlana boshladi. Qur‘on ma‘nosini tushunish uchun qilingan turli tadqiqotlardan balog‘at ilmi rivojini to‘rt davrga bo‘lib o‘rganish mumkin.

Balog‘at ilmi rivojlanishining birinchi bosqichi X asr oxirigacha davom etgan bo‘lib, bu davrda balog‘at ilmi til va adabiyot, tafsir va ilohiyot ilmlari bilan birgalikda tadqiq etilgan. Bundan asosiy

maqsad Qur‘onni to‘g‘ri anglashga qaratilgan edi. Qur‘onning balog‘ati va fasohatini tushungan. Lekin, yangi avlodlar, ayniqsa arab bo‘lmagan musulmon jamiyatlari tushuna olishlari uchun olimlar tomonidan turli izlanishlar amalga oshirilgan. Natijada balog‘at mustaqil fanga aylangan. Bu davrda yetishib chiqqan tilshunos olimlar va adiblarning ko‘pchiligi tafsirshunos edilar. Binobarin, bu davrda yozilgan tafsirlar balog‘atga oid ilk ma‘lumotlar uchun asosiy manba hisoblanadi (Nasrulloh Hacımüftüoğlu, 1988:41).

Islom dini keng tarqalib, arab bo‘lmagan xalqlar tomonidan Qur‘onni noto‘g‘ri tushunish xavotirlari paydo bo‘lgach, daʼstlab arab tili grammatikasi qoidalarini tizimlashtirish va mukammallashtirish zarurati yuzaga chiqdi. Mazkur qoidalar qatorida adabiyot masalalari ham ko‘rib chiqilganligi sababli balog‘at qoidolari shu fanlar doirasida o‘rganildi.

Sibavayh (vaf. 180/796) o‘zining «al-Kitāb» nomli asarida tilga oid masalalardan tashqari balog‘at ilmining mavzularidan hisoblangan ega (musnad), kesim (musnad ilayh), gapda maqsadga ko‘ra egani taqdim qilish (gapda kesimni egadan avval keltirish), ta‘xir (gapda kesimni egadan keyin keltirish), qiyosga teskari holda gap aytilish, ta‘rif (gapda egani aniq holda keltirish), tankir (gapda egani noaniq holda keltirish), hazf (gapda ega, kesim yoki boshqa gap bo‘lagini tushirib qoldirish), amr (fe‘lning buyruq mayli) va nahiy (fe‘lning inkor shakli) kabi mavzularni ham keltirgan. Mubarrad (vaf. 285/898), o‘zining «al-Kāmil» asarida til va adabiyot masalalaridan tashqari, majoz, tashbeh, tartib, majoz, ištiora va boshqa mavzular haqida ma‘lumotlar keltirgan. Mazkur asarda muallif balog‘atning tashbeh mavzusini batafsil bayon qilgan. Johiz «al-Bayān va-t-tibyān» nomli mashhur asarida fasohat, tashbeh, majoz, ištiora, kinoya, muqtazo-l-hol kabi mavzularga ham alohida bob ajratgan (Fazl Hasan, 1997:73).

Qur‘ondagi so‘zlar, ular ishora qiladigan ma‘nolar, sifatlar va harakatlarning ba‘zilari aniq (muhkam), ayrimlari esa ko‘chma ma‘noda (mutashābih) ekanini ochib berish uchun Yahyo ibn Ziyod Farro (vaf. 207/822) «Ma‘oni al-Qur‘on» (معاني القرآن), Abu Ubayda Ma‘mar ibn Musanna (vaf. 209/824) «Majāzu-l-Qur‘ān» (مجاز القرآن), Abul Barokat bin Anboriy «E‘robu-l-Qur‘ān» (إعراب القرآن), Ibn Qutayba (vaf. 276/889) «Ta‘wīlu mushkili-l-Qur‘ān» (تأويل مشكل القرآن), Abu Is‘hoq Zajjoj (vaf. 311/923) «E‘robu-l-Qur‘ān» (إعراب القرآن) va Sharif Roziy (vaf. 406/1015) «Talḥīṣu-l-bayān fī mu‘jizati-

Annotatsiya. Mazkur maqolada arab tilining balog‘at fani, uning tarkibidagi bayon, maoniy va badi’ ilmlari, ushbu ilmlarning yuzaga kelish tarixi, hamda, ularning ajdodlardan qolgan og‘zaki va yozma ma’naviy merosni o‘rganishdagi ahamiyati bayon qilinadi. Shuningdek, arab tili balog‘atiga ulkan hissa qo‘shgan olimlar Jurjoni, Zamaxshari, Taftazoni, Sakkoki, Qazvini haqida so‘z yuritiladi. Xususan, «Muṭawwal», «Muḥtasaru-l-ma‘āni», «Sharḥu-l-miftāḥ» asarlari tekstologiyasi, tarkibiy tuzilishi, mazkur asarlardagi balog‘at qoidalari hamda terminlarining qo‘llanilishi borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar Taftazoniyning balog‘at ilmining nazariy qoidalari ishlab chiqishda o‘z uslubiga ega ekanini ko‘rsatadi. Ushbu asarlarda ilgari surilgan nazariy qarashlar balog‘at ilmi sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar salmog‘ini oshirishga xizmat qiladi. Taftazoniyning balog‘atga doir barcha asarlari u yashagan davr taqozosi bilan sharh tarzida yozilgan. Olim avvalgi balog‘at sohasidagi olimlarining asarlarini batafsil o‘rganib chiqqani va ularni tahqiq qilib, sharhlar yozgani ma’lum bo‘ldi. Sa’duddin Taftazoni balog‘at ilmi namoyondalari hisoblangan Abdulqohir Jurjoni, Mahmud Zamaxshari, Yusuf Sakkoki, Mahmud Qazvini va boshqa olimlarning balog‘at ilmiga oid qarashlariga nisbatan munosabat bildirgan. Taftazoni Jurjoni va Sakkokiyning balog‘at ilmiga oid ishlab chiqqan qoidalari tanqidiy ko‘rib chiqqan, to‘g‘rilagan, kengaytirgan, osonlashtirgan va yangi qoidalar bilan kengaytirgan hamda ularga dalillar keltirgan.

Kalit so‘zlar: arab tili balog‘at fani, maoniy, bayon, badi’, polisemiya, sinonimiya.

Abstract. This article describes the science of Arabic rhetoric (Balagha), the sciences of bayan, ma’ani and badi’, the history of the emergence of these sciences, as well as their importance in studying the oral and written spiritual heritage left by ancestors. It is also mentioned about Jurjani, Zamakhshari, Taftazani, Sakkaki, Qazvini, scholars who made a great contribution to the Arabic rhetoric (Balagha). In particular, the researches carried out on the textology, structure, rules, and terms of rhetoric in the works "Muṭawwal", "Muḥtasaru-l-ma‘āni", "Sharḥu-l-miftāḥ" shows that Taftazani had his own style in developing the theory of rhetoric science. The theoretical views put forward in these works serve to increase the importance of research in the field of rhetoric science. All of Taftazani's works on Arabic rhetoric were written in the style of commentary according to the requirements of the time he lived in. It became known that the scholar studied in detail the works of previous scientists in the field of rhetoric, researched them, and wrote commentaries. Sa’duddin Taftazani reacted to the views of Abdulkahir Jurjani, Mahmud Zamakhshari, Yusuf Sakkaki, Mahmud Qazvini, and other scholars, who are considered to be representatives of the science of rhetoric. Taftazani critically examined, corrected, expanded, simplified, and extended the rules of rhetoric science developed by Jurjani and Sakkaki, and provided evidence for them.

Keywords: science of Arabic rhetoric (Balagha), Ma’ani, Bayan, Badi’, polysemy, synonymy.

Аннотация. В статье излагаются вопросы риторики арабского языка (илм аль-балага), описываются ее составные части: искусство изложения (аль-баян), лексикология (ал-маани) и художественное оформление речи (аль-бади’), и история возникновения этих наук, а также разъясняется их значимость в изучении устного и письменного наследия наших предков. В статье также приводятся сведения об ученых, внесших огромный вклад в науку о риторике арабского языка, такие как Джурджани, Замахшари, Тафтазани, Саккаки и Казвини. В частности, при изучении текстологии, структуры, применения правил риторики и терминов в произведениях «Мутаввал», «Мухтасар аль-маани» и «Сарф аль-мифтах» было выявлено, что Тафтазани имел собственную методологию разработки теоретических правил риторики. Теоретические взгляды, изложенные в этих произведениях с помощью таких методов, как «итнаб» (многословие), «истиара» (метафора), «мухассанат ал-бади’ийа» (художественная выразительность), «таибих» (сравнение), «кинайа» (ирония), «каسر» (сокращение) и «илтифат» (любезность), способствуют содержательности исследований в области арабской риторики. Все произведения Тафтазани, посвященные арабской риторике, в соответствии с тенденцией той эпохи, были написаны в виде комментариев. Это дает нам понять, что он всесторонне изучил и проанализировал труды предшествующих ему ученых в области арабской риторики и написал к ним комментарии. В трудах Саадуддина Тафтазани представлено его мнение относительно взглядов выдающихся ученых в области арабской риторики: Абдулкадыра Джурджани, Махмуда Замахшари, Юсуфа Саккаки, Махмуда Казвини и других, касательно таких методов риторики, как «истиара», «итнаб» «мухассанат ал-бади’ийа» и «мухассанат ал-ма’навийа». Тафтазани критически изучил правила арабской риторики, разработанные Джурджани и Саккаки, скорректировал их, расширил, упростил и дополнил новыми правилами, а также представил соответствующие доводы.

Ключевые слова: риторика арабского языка, илм аль-маани, илм аль-баян, илм аль-бади’, полисемия, синонимия.

l-Qur'ān» (تلخيص البيان في معجزة القرآن) asarlarini yozganlar (Fazl Hasan, 1997:64).

«Ma'āni-l-Qur'ān», «E'jāzu-l-Qur'ān», «Majāzu-l-Qur'ān», «Mushkilu-l-Qur'ān», «E'robu-l-Qur'ān» nomli asarlar balog'at ilmini o'rganishga oid tadqiqotlarning boshlanishi bo'lib, bu asarlarda so'z va ma'no munosabatlari ko'rib chiqilgan Abu (Yaqub Sakkokiy, 1999:14).

Islom madaniyatining o'zga madaniyatlar bilan aloqasi natijasida vujudga kelgan ayrim holatlarga ilohiyot olimlarining yechim izlashi balog'at ilmi rivoji uchun ham turtki bo'ldi. Olimlar Qur'on mo'jizakorligiga e'tibor qaratib, majozni idrok etishning yo'llaridan biri bo'lgan balog'at masalalari bilan mashg'ul bo'ldilar. Qur'onning mo'jizakorligiga doir Johizning «Naẓmu-l-Qur'ān» (نظم القرآن), va Muhammad ibn Zayd Vositiyning (vaf. 306/919) «Iyǧāzu-l-Qur'ān» (القرآن إيجاز), Rummoniyning (vaf. 306/919) «an-Nuktatu fī iyǧāzu-l-Qur'ān» (النكتة في إيجاز القرآن), Abu Bakr Boqiloniyning (vaf. 403/1013) «Mu'jizatu-l-Qur'ān» (معجزة القرآن) va Abul Hasan Abduljabborning (vaf. 415/1025) «al-Muǧniy fī abwābi-t-tawhid wa-l-'adl» (المغني في أبواب التوحيد والعدل) nomli asari muhim manba hisoblanadi (Fazl Hasan, 1997:120).

Islomdan avval og'zaki ko'rinishda bo'lgan adabiy manbalar abbosiylar davrining ilk yillaridan ijtimoiy va ma'rifiy taraqqiyot bilan birga yozma shaklda ham rivojlana boshladi. Balog'atning birinchi davridagi adabiy asarlar adabiy tanqid tamoyillarini belgilashga asos bo'lgan. Ular orasida Muhammad ibn Salam Jumahiyning (vaf. 231/846) «Ṭabaqāt fuḥūli-šu'arā'» (طبقات فحول الشعراء), Abu Zayd Qurashiyning «Jamharatu aš'āri-l-'arab» (جمهرة أشعار العرب), Ibn Qutaybaning «aš-ši'r wa-š-šu'arā'» (الشعر والشعراء), Ibn Mu'tazning «Ṭabaqātu-š-šu'arā'» (طبقات الشعراء) va Abul-Faraj Isfahoniyni (vaf. 356/967) asarlarini balog'atning bu davrdagi nodir manbalardan, deb hisoblash mumkin. Adabiy tanqid nuqtai nazaridan nihoyatda samarali bo'lgan bu davrda adabiy tanqid va balog'at o'zaro bog'langan ko'rinadi (Abdurahmon Fehmi, 1304:54).

Balog'atning ikkinchi davri milodiy X asr oxiridan XIV asr oxirigacha davom etgan. Bu davrda yozilgan asarlarda balog'at fani mavzulari birinchi o'ringa chiqadi. Balog'at ilmi atamallari paydo bo'lib, bu ilm mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Abu Hilol Askariyning «Kitābu-š-šinā'atayn» (كتاب الصناعتين), Ibn Rushdning (vaf. 463/1070) «al-'Umda» (العمدة), Ibn Sinonning «Sirru-l-faṣāḥa» (سر الفصاحة), Abu Tohir Muhammad ibn

Haydar Bag'dodiyning (vaf. 517/1123) «Qānūnu-l-balāḡa»si (قانون البلاغة) – bu davrning eng muhim asarlaridan hisoblanadi. Shuningdek, bu davrning eng mashhur asarlari qatoriga balog'at ilmi tarixidagi buyuk nazariyotchilardan biri bo'lgan Abdulqohir Jurjoniyni «Asrāru-l-balāḡa» (اسرار البلاغة) va «Dalāilu-l-i'jāz» (دلائل الإعجاز) asarlari ham kiradi.

Zamaxshariy Qur'on balog'atini keng yorituvchi «al-Kaššāf 'an ḥaqāiqi-t-tanzīl» (الكشاف عن حقائق التنزيل) nomli tafsirini Jurjoniyniyni zikr etilgan ikki asari asosida yozgan. Bu davr oxirlarida yozilgan asarlarga balog'at yo'g'rilgan bo'lib, bu ilm o'ziga asta-sekin bayon, ma'oniylar va badi' ilmlarini birlashtirdi. Fahriddin Roziy (vaf. 606/1209) tomonidan yozilgan «Nihayātu-l-i'jāz fī dirāyati-l-i'jāz min Asrāru-l-balāḡa wa Dalāilu-l-i'jāz» (نحاية الإعجاز في دراية الإعجاز من اسرار البلاغة) (ودلائل الإعجاز) – ushbu davrning boshqa bir asari. Asar Abdulqohir Jurjoniyniyni ikki asari asosida va Rashiduddin Muhammad ibn Muhammad Vatvotning (vaf. 573/1177) forsha «Ḥadāiqu-s-sihr fī daqāiqi-š-ši'r» (حدايق السحر في دقائق الشعر) asarida jamlangan badi'ga oid san'atlarni qo'shib yaratilgan. Abu Ya'qub as-Sakkokiyning (vaf. 626/1229) «Miftōḥul-ulum» (مفتاح العلوم), Ziyovuddin Ibnu-l-Asirning (vaf. 637/1239) «Masalu-s-sāir fī adabi-l-kātib va-š-šāir» (مثل السائر في أدب الكاتب و الشاعر), «al-Jāmi'u-l-kabīr fī šinā'ati-l-manẓūm mina-l-kalām wa-l-manšūr» (الجامع الكبير في صناعة المنظوم من الكلام والمنثور), Ibn Abul-Isba Misriyning (vaf. 654/1256) «Badī'u-l-Qurān» (بديع تحرير التحرير) asari, Yahyo ibn Hamza Alaviyning (vaf. 749/1348) «at-Tarāzu-l-mutaḍammīn li-Asrāri-l-balāḡa» (الطراز المتضمن لأسرار البلاغة) asarlari shular jumlasidan hisoblanadi (Fazl Hasan, 1997:129).

Balog'atning uchinchi davri XIV asr o'rtalaridan XIX asr oxirigacha davom etgan. Bu uzoq davrda barcha fanlarning boshqa sohalarida bo'lgani kabi balog'at fanlarida ham turg'unlik davri bo'lgan. Abu Ya'qub as-Sakkokiyning «Miftāḥu-l-ulūm» asarining uchinchi bo'limi asosda Qavziniy tarafidan «Talḥiṣ'u-l-Miftāḥ» asarini yozilgan. Bugungi kungacha Sakkokiyning kitobiga sharh, keyinchalik, yozilgan hoshiya va izohlar saqlanib qolgan.

Keyinchalik alohida asarlar o'rniga tasniflar, sharhlar va talxislar bilan kifoyalandi va bu holat balog'atga oid tadqiqotlarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Bu davrda bayon, maoniylar va badi' shaklida uchlik tasnifi davom etdi. Bu davrning balog'at ilmiga oid e'tiborli asarlari: Azududdin O'shiyning (vaf. 756/1355), «al-Fawāidu-l-ḡiyāsiyya» (الفوائد)

(الغياثية), Sakkokiyning «Miftāḥul-ulūm» asarining balogʻatga oid uchinchi qismi, Saʼduddin Taftazoniyning (vaf. 792/1390) «al-Muṭawwal ʻala-t-talḥīs» (المطول على التلخيص), Sayyid Sharif Jurjoniyning (vaf. 816/1413) «Ḥāshiyatu-s-Sayyid ʻala-l-Muṭawwal» (حاشية السيد على المطول), Hasan Chalabiyning (vaf. 886/1481) «Ḥāshiyatu ʻala šarḥi-l-Muṭawwal» (حاشية على شرح المطول), Abul-Qosim Lays Samarqandiyning (vaf. 888/1483) «Ḥāshiyatu Abi-l-Qāsim al-Laysiy as-Samarqandiy ʻala-l-Muṭawwal» (حاشية أبي القاسم الليسى السمرقندى على المطول), Abdulhakim Siyalkutiyning (vaf. 1067/1656) «Ḥāshiyatu ʻala-l-Muṭawwal» (حاشية على المطول) (Fazl Hasan, 1997:128).

Bu davrda sharh va izoh tarzida yozilgan asarlar islom olamidagi adabiy-ilmiiy tushunchaga oid nozik tahlil va tanqidlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Balogʻat fani ushbu davrgacha boʻlgan xususiyatlariga koʻra, odatda, ikki asosiy maktabga, yaʼni ilohiyot-falsafa maktabi va adabiyot maktabiga boʻlinadi. Suyutiy bu ikki bosqichni fors va faylasuflar maktabi hamda arab va balogʻat maktabi deb ifodalaydi.

A) Kalom va falsafa maktabi. Bu maktabda mantiqiy taʼriflar, tasniflar, falsafiy va mantiqiy atamalar ustunlik qiladi. Bu maktab aʼzolari oʻzlarining soʻzamolligi va soʻz boyligi bilan mashhur boʻlgan kishilardan koʻplab misollar keltirib, yangicha uslub va tushuncha hosil qilish oʻrniga, mantiq va fazoviy qoidalarga muvofiq tavsifdan iborat tushunarsiz va zich matnni ilgari surishni maʼqul koʻrdilar. Ular bu matnlarni tushunish uchun sharh, hoshiya va izoh yozish zarurligini tushunib yetganlar. Ayniqsa, Sakkokiyning keyingi olimlar bor kuchlarini ana shu qiyin matnlarni tushunishga, bunday asarlarni sinchiklab tahlil va tanqid qilishga sarflaganlar. Ochiq aytganda, ular avvalgi davr asarlari kichik hajmli va qisqa boʻlgani, shuningdek, misollar bilan kengroq yoritilmagani sababli, asosan, tanqidiy matn tuzishga, avvalgi asarlarni izohlashga va ochishga katta urgʻu berganlar.

Binobarin, ularning balogʻatga oid shaxsiy qarashlari ana shu sharh va izohlarda aks etgan. Islom olamining sharqiy qismida hukmron boʻlgan bu maktab tamoyillari asosida yozilgan asarlar Abdulqohir Jurjoniyning «Dalāʼilu-l-iʼjāz» asari, Zamaxshariyning «al-Kaššāf» asari, balogʻatning yetuk olimlaridan Fahriddin Roziyning «Nihayātu-l-iʼjāz fī dirāyati-l-iʼjāz» asari, Yusuf Sakkokiyning «Miftāḥu-l-ʻulūm» asari, Badriddin ibn Molikning «al-Miṣbāḥ fī ʻulūmi-l-maʼāni wa-l-bayān wa-l-badīʼ» (المصباح في علوم المعاني والبيان والبديع) asari,

Qazviniyning «Talḥīṣu-l-Miftāḥ ila-l-iydāḥ» (تلخيص المفتاح إلى الإيضاح) asari, Saʼduddin Taftazoniyning «al-Muṭawwal» va «al-Muḥtaṣar» asarlari va ularga keyinroq yozilgan sharhlar, hoshiyalar va izohlarni misol qilib keltirish mumkin (Fazl Hasan, 1997:125).

B) Adabiyot maktabi. Bu maktab aʼzolari falsafiy va mantiqiy atama va taʼriflardan koʻra adabiy did va badiiy mezonlarga asoslanib, koʻplab misol va masalalar asosida adabiy did va soʻzlashuv uslubini ochib berishga harakat qilganlar. Bu maktabga mansub asarlar kalom maktabidan koʻra oʻqish va tushunish osonroq boʻlgani uchun ular haqida sharh, izoh va hoshiyalarga ehtiyoj qolmagan.

Arabiston yarimoroli, Iroq, Suriya, Misr va Marokashda hukmron boʻlgan, arab tili ona tili sifatida qoʻllaniladigan bu maktab tamoyillari asosida yozilgan asosiy asarlar Ibn Rushk Kayrovoniyning «al-ʻUmda» (العمدة) asari hamda Ibn Sinon Hafizning «Sirru-l-faṣāḥa» (سر الفصاحة) asaridir. Usoma ibn Munkizning «al-Badīʼ fī naqdi-s-sirr» (البديع في نقد السر) asari, Ziyovuddin Ibn Asirning «al-Jāmiʻu-l-kabīr» (الجامع الكبير) va yana Ibn Abul-Isba al-Misriyning «Badīʼu-l-Qurʼān» (بديع القرآن) asari shular jumlasidndir. Yahyo ibn Hamza al-Alaviy bu ikki mazhab qarashlarini birlashtirib, «at-Tarāzu-l-mutaḍammin li-asrāri-l-balāḡa» nomli asar yozgan boʻlsa-da, bu asar oʻzidan keyin koʻp ommalashmagan. Bir xil sharoitda tugʻilib, rivojlangan bu maktablarni bir-biridan maʼlum chiziqlar bilan ajratib boʻlmaydi. Holbuki, islom olamida balogʻat deyilganda birinchi navbatda kalom va falsafa maktabi hamda bu maktabga mansub mualliflarning asarlari ham yodga tushadi.

Balogʻatning toʻrtinchi davri XIX-asrning oxiridan hozirgi kungacha davom etgan. Bu islom olami Yevropa bilan aloqa qilgandan soʻng baʼzi yangi izlanishlar boshlangan davrdir. Mazkur davrda yetishib chiqqan soʻz sanʼatkorlarini boshqa koʻplab fan sohalarida boʻlgani kabi ikki guruhga boʻlish mumkin: mumtoz badiyatshunoslikni davom ettiruvchilar va unga zamonaviy jihat bermoqchi boʻlganlar. XX asr notiqalarining oʻziga xos jihati shundaki, ular avvalgi davrlarda yozilgan va shu davr boshida nashr etilgan matn, sharh va izohlardan foydalanib, mavzuni oʻz fikriga koʻra ifodalashga kirishadilar. Bu davrda mumtoz uslubni kichik qoʻshimchalar bilan davom ettirgan notiqarlar va ularning baʼzi asarlari quyidagilardir: Husayn ibn Ahmad Marsafiyning (vaf. 1307/1889) «Al-waṣīlatu-l-adabiyya ila-l-ʻulūmi-l-ʻarabiyya» (الوصيلة الأدبية)

العربية (إلى العلوم العربية) asari; Ahmad Hoshimiyning (vaf. 1362/1943) «Jawāhiru-l-balāḡa f-l-maʿāni wa-l-bayān wa-l-badīʿ» (جواهر البلاغة في المعاني والبيان والبديع) asari; Ahmad Muṣtafo Maragʻi (vaf. 1952) «ʿUlūmu-l-balāḡa» (علوم البلاغة) asarlaridir (Fazl Hasan, 1997:115).

Balogʻatga zamonaviy jihat bermoqchi boʻlganlar, odatda, gʻarb adabiyotini oʻqigan va oʻrgangan, bu adabiyotdagi oʻzgarishlardan taʼsirlangan odamlardir. Ular balogʻat ilmini adabiy tanqid bilan chambarchas bogʻlash va gʻarbdagi kabi estetik tadqiqotlardan foydalanish zarurligini taʼkidladilar. Eng muhim vakillari Toha Husayn, Abbos Mahmud Akkad va Ibrohim Maziniydir. Ularning koʻpchiligi toʻgʻridan-toʻgʻri balogʻat bilan bogʻliq asarlar yozmasalar-da, oʻz asarlarida balogʻatga oʻrin ajratgan odamlardir. Balogʻat olimlar va ularning asarlari quyidagilardir:

Amin Huliynig «Fannu-l-qawl al-balāḡa wa ʻilmu-n-naḥs» (فن القول البلاغة وعلم النفس) asari; Ahmad Hasan az-Zayyotning «Difāʻ ʻani-l-balāḡa» (دفاع عن البلاغة) va Ali Karim – Muṣtafo Aminning «Al-balāḡatu-l-wāḍiḥa» (البلاغة الواضحة) asari shular jumlasidandir (Fazl Hasan, 1997:117).

Balogʻat fani boʻyicha hijriy II asrdan boshlab asarlar yozila boshlangan. Bayon ilmi haqida yozilgan daʼstlabki asar Abu Ubayda Maʼmar ibn Musanniy Basriyning «Majāzu-l-Qurʻān» kitobi boʻlib, u ilmi bayonning ilm sifatida shakllanishiga asos boʻlgan. Abu Ubayda alloma Xalil ibn Ahmadning shogirdi boʻlib (vaf. 206/821), Sibavayhning uʼstozidir (Abdurahmon Fehmi, 1304).

Maʼoniy ilmi haqida koʻplab mualliflarning asarlari mavjud. Lekin, uslubida yagona boʻlgan, adiblar sardori deya tanilgan Abu Usmon Amr ibn Bahr Johizning (vaf. 255/869) «al-Bayān wa-t-tabyīn» hamda «Iʼjāzu-l-Qurʻān» kitoblari ular orasida alohida ajralib turadi. Undan keyin Abu Abbos Mubarrad «al-Kāmil» asari bilan bu fanga oʻz hissasini qoʻshgan.

Saʼduddin Taftazoniynig balogʻat ilmiga oid «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» (مختصر المعاني) nomli asari boʻlib, u Qazviniyning «Talḥīṣu-l-miftāḥ» asariga yozilgan ikkinchi sharhidir. Asar muqaddimasidan Taftazoniy mazkur asarni oʻzi maxsus nomlamagani maʼlum boʻladi. «aš-Šarḥu-ṣ-ṣaḡīr» nomi bilan ham atalgan. Bu asarga Subki Nazir «Havāṣi-š-šarḥi-ṣ-ṣaḡīr» nomli xoshiya yozgan. Saʼduddin Taftazoniy «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» asarini 756/1355 sanada Gʻijduvonda nihoyasiga yetkazgan va uni sulton Abu Muzaffar Mahmud Jonibekxonga taqdim qilgan (Fazl Hasan, 1997:236).

Asarning chop etilgan nusxalari koʻp boʻlib, ulardan biri «Šurūḥ-t-Talḥīṣ» nomli majmuada chop etilgan. Mazkur asar Muhammad Muhyiddin Abdulhamid tomonidan «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» nomi bilan qayta nashr etilgan. Uning har bir faslida mashqlar keltirilgan. Ushbu nashr oldingilaridan aniqligi bilan ajralib turadi.

Abdulmutaʼal Soʻidiy ushbu asarni «Šarḥu-l-muḥtaṣar» nomi bilan nashr qilgan. U Saʼduddin Taftazoniynig matn iborasini bayon qiluvchi hoshiyalar va sharhlar keltirgan.

Saʼduddin Taftazoniy «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» asarini yozish sabablaridan biri «Muṭawwal» da oʻzi sharhini uzaytirib yuborgan ayrim ilmiy masalalarni qisqa koʻrinishda ochib berish va uni oʻquvchilar uchun yanada tushunishga oson boʻlishi uchun ixchamlashtirgan. Taftazoniy asarda iboralar sharhi, balogʻatga oid qoʻshimcha fikrlar, ayrim qarashlarga eʼtiroz va ularning yechimiga alohida boʻlimlar ajratgan.

Saʼduddin Taftazoniy «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» asarining muqaddimasida mazkur asarni yozish borasida: Men «Talḥīṣu-l-Miftāḥ» da kelgan maʼlumotlarni sharhladim. Unga nozik fikrlar chizib bergan satrlar nafisligi bilan bezak berdim. Soʻng koʻplab fozillar va zakovatli kishilarni koʻrdim. Ular mendan uni muxtasar qilish, maʼnolari bayonini qisqartirish, pardalarini ochish tomon himmatimni sarf qilishimni soʻrashdi. Buning sababi ular tahsil oluvchilarning asar nurlarini yaxshilab oʻrganishdan himmatlari kamaygani, uning yashirin sirlarini ochishga jurʼatlari pasayganiga guvoh boʻlishgan edi. Shunday qilib asarni ikkinchi marta ularning taklifiga koʻra sharhlash va birinchisini qaytadan muxtasar qilish uchun eʼtiborni jilovlash tomon turdim», deb balogʻat ilmiga oid ikkinchi asarining yozilish sababini keltirib oʻtgan (Saduddin Taftazoniy, 2017:23).

«Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» asari bilan «Muṭawwal» oʻrtasidagi farqlardan biri ushbu ikki asarni qiyoslagan tadqiqotchi Saʼduddin Taftazoniy «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy» asarida «Muṭawwal»da keltirgan koʻp bahslarni, Qazviniyga bildirgan ayrim eʼtirozlarni, «Kaššāf» va boshqa asrlardan keltirgan iqtiboslarni qisqartirgani, «Muṭawwal»da Qazviyniy soʻzini dalillash yoki toʻldirish maqsadida ulamolardan keltirgan koʻp misollardan voz kechib, ularning mazmuniga ishora qilish bilan cheklanganini koʻrish mumkin (Saduddin Taftazoniy, 2013:34).

Saʼduddin Taftazoniy «Muḥtaṣaru-l-maʼāniy»da Sakkokiynig «Miftāḥ» va Qazviniyning «Izāḥ» asarlaridagi balogʻat ilmiga oid baʼzi chigalliklarni

ochishda o'zining «Muṭawwal» asarida keltirgan ma'lumotlarni, ko'p hollarda savol-javoblarni qisqartirgan. Lekin o'zidan oldingi «Talxis» asarini sharh qilgan olimlarning xatolariga e'tibor qaratib, «Muṭawwal»da ularga bildirgan munosabatlarini «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asarida qoldirgan. Chunki, Sa'duddin Taftazoniyning «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asari matn sharhiga bevosita bog'langan asardir. Shu bilan birga, Taftazoniy ushbu asarda ba'zi fikr va mulohazalarni qisqartirgan. «Muṭawwal»da mufassal bayon qilgan ba'zi ma'lumotlarni qisqartirgan va unga ishora berish bilan kifoyalangan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muṭawwal» asarida nomlarini keltirgan olimlarning ba'zi so'zlarni ham qisqartirgan.

Sa'duddin Taftazoniy o'zi sharh qilayotgan matn muallifi bildirgan fikrlarni va u keltirgan misollarini tushunish borasida balog'atga oid ikkinchi sharh asari «Muḥṭasaru-l-ma'āniy»da birinchi sharh asari hisoblangan «Muṭawwal»da keltirilmagan balog'atga oid ba'zi ilmiy tahlillarni va bildirilmagan ilmiy qarashlarni, shuningdek, avval keltirmagan olimlarning fikrlarini keltirgan va ularga munosabat bildirgan (Saduddin Taftazoniy, 2013:86).

Sa'duddin Taftazoniy shuningdek, avval qat'iy fikr aytmagan bir qancha masalalarga oid o'z fikrlarini ochiq bildirgan. Oldin faqat laqablarini zikr qilish bilan kifoyalangan ba'zi balog'at olimlarining ismini ham to'liq keltirgan.

Nisbat berilishi noma'lum bo'lgan ba'zi ilmiy qarashlar egasiga nisbat bergan. «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asarida shaxsiy jihatlarni ochib beradigan qissalar va ajoyib voqealar ham qo'shimcha qilingan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asarida keltirgan qo'shimchalariga Taftazoniyning fors adabiyoti va balog'ati bilan chuqur tanishib chiqqani ham katta ta'sir qilgan. «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asarida arablar balog'ati bilan forslar balog'atini solishtirishga harakat qilgan.

Sa'duddin Taftazoniy «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asarida «Muṭawwal»dan farqli ravishda yangicha sharh uslubidan borgan. Bu avvalo tadqiqotchi uchun matnni chuqur tushunishga, ikkinchidan Sa'duddin Taftazoniyning ba'zi fikrlaridan ko'zda tutilgan maqsadni ham tushunishga yordam beradi.

«Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asariga bir qancha hoshiya va izohlar yozilgan. Asar hijriy 1271/1854-yilda Dusuqiyning xoshiyasi bilan Qohiradagi Buluq matbaasida nashr etiladi (Shavqiy Doyf, 2008:186).

Taftazoniyning «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asari balog'at va fasohat, balog'at darajalari va balog'atning ma'oni, bayon, badi' tarmoqlarining xususiyatlariga doir nazariy ma'lumotlar bilan boshlangan.

Asarning bu qismi quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: sharhlovchining muqaddimasi (مقدمة), kirish so'zi (كلمة الافتتاح), balog'atning uchinchi tarmog'ining qo'shilishi haqida (وجه ترجيه الفن الثالث), «Miftāḥ»ning yozilishi haqida (وجه تأليف المفتاح), muallifning uslubi (منهج المصنف), balog'at va fasohat bo'limlari (أقسام الفصاحة والبلاغة), fasohat haqida (الفصاحة في الكلام), gap fasohati haqida (بيان الفصاحة), notiqning fasohati (الفصاحة في المتكلم), gapdagi balog'at (ارتفاع شأن), gap qadrining ko'tarilishi (البلاغة في الكلام), balog'atning darajalari (مراتب البلاغة), notiqning balog'ati (البلاغة في المتكلم), gapdagi balog'atning manbai (مرجع البلاغة في الكلام), balog'atning uch tarmog'ining xususiyatlari (وجه انحصار المقصور في), (الفنون الثلاثة) (Saduddin Taftazoniy, 2017:230).

Taftazoniy balog'atning ma'oni, bayon va badi' ilmlari haqida o'zigacha fikr bildirgan olimlar qarashlariga asosli ilmiy munosabatlarni bayon etgan. Quyida Taftazoniyning balog'at ilmiga oid asarlarining mundarijasi keltiriladi:

Ma'oniylar ilmi. Taftazoniy «Muḥṭasaru-l-ma'āniy» asarida ma'oniylar ilmini quyidagicha ta'riflaydi:

وهو علم يعرف به أحوال اللفظ العربي التي بها يطابق اللفظ مقتضى الحال (أي ملكة يقتدر بها على إدراكات جزئية)

Bu – arab tilidagi gapning vaziyat talab qilgan holatga mos keladigan ko'rinishlarini va jihatlari (ya'ni nozik tushunchalarni idrok eta olish malakasi va ko'nikmasi) o'rganiladigan ilm.

Taftazoniy ma'oniylar ilmini quyidagi mavzularga bo'lib tahlil qilgan: haqiqat va yolg'on tushunchalari haqida (تفسير الصدق والكذب), bir so'zni boshqa so'zga bog'lab darak gaplar tuzish haqida (أحوال الإسناد), vaziyat taqozosiga teskari bo'lgan gap aytish (الخبري), haqiqiy ma'noda bir so'zni boshqa so'zga bog'lash (الإسناد الحقيقي), majoziy ma'noda bir so'zni boshqa so'zga bog'lash (أقسام المجاز العقلي), aqliy majoz haqida (الإسناد المجازي), Qur'ondagi majoz (المجاز في القرآن), aqliy majozdagi qarina-aniqlashtiruvchi so'z haqida (وجه القرينة للمجاز), ega haqida (أحوال المسند إليه), gapda egani tushurib qoldirilishi (حذف المسند إليه), eganing gapda zikr etilishi (ذكر المسند إليه), gapda egani olmosh orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإضمار), gapda egani atoqli ot orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالعلمية), gapda egani nisbiy olmosh orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالموصولية),

gapda egani ko'rsatish olmoshi orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإشارة), gapda egani «ال» aniqlik artikli olgan so'z orqali ifoda etish (تعريف المسند إليه), gapda egani qaratqich kelishikli birikma orqali aniq ifoda etish (تعريف المسند إليه بالإضافة), gapda egani noaniq holatdagi so'z orqali ifoda etish (تتكير المسند), gapda egadan boshqa bo'laklarni noaniq holda ifoda etish (تتكير غير المسند إليه), ega haqida (وصف المسند), gapda egani ta'kidlab keltirish (توكيد المسند إليه), gapda egani izohlovchi bilan birgalikda ifoda etilishi (بيان المسند إليه بعطف البيان), ekaning izohlovchisi haqida (الإبدال من المسند إليه), ekaning uyushib kelishi haqida (العطف على المسند إليه), ekaning ajratuvchi olmosh bilan kelishi (تعقيب المسند إليه بضمير الفصل), ekaning gapda boshqa bo'laklardan avval kelishi haqida (تقديم المسند), men bu borada nima deyman deb nomlangan bob (باب ما أنا قلت), ekaning gapda boshqa bo'laklardan keyin kelishi haqida (تأخير المسند إليه), nutqda e'tiborni o'ziga tortish (الالتفات), nutqda e'tiborni go'zal tarzda o'ziga tortish yo'llari haqida (وجه حسن الالتفات), nutqda e'tiborni hikmatli uslub orqali o'ziga tortish (الأسلوب), fe'lining o'tgan zamon shakli bilan kelasi zamonning ifoda etilishi (التعبير عن المستقبل بلفظ الماضي), ifodalamoqchi bo'lgan fikrning teskarisini aytish (القلب), kesim haqida (أحوال المسند), kesimni tushirib qoldirish haqida (ترك المسند), kesimni gapda keltirish (ذكر المسند), kesimni yakka holda keltirish (إفراد المسند), musnad-kesimning fe'l orqali ifodalanishi (كون المسند فعلا), kesimning ism orqali ifodalanishi (المسند اسما), fe'lni to'diruvchi bilan bog'ash (تقييد الفعل), musnadni qayd qilmaslik (ترك تقييد), shart (تقييد الفعل بالشرط), shart yuklamalari haqida (بيان أدوات الشرط), agar, gar, ...da (إذا وإن ولو), tag'lib (التغليب), kesimning noaniq holda kelishi (تخصيص المسند), kesimni xoslash (تعريف المسند), kesimni aniq holda kelishi (كون المسند جملة), kesimni gap orqali ifodalanishi (تأخير المسند), kesimni (egadan) keyin keltirish (تقديم المسند), fe'l bilan bog'liq holatlar (أحوال متعلقات الفعل), fe'l bilan to'diruvchni birga keltirmaslik (عدم ذكر المفعول مع الفعل), to'diruvchining tushirib qoldirish yo'llari (وجوه حذف المفعول), to'diruvchining (fe'ldan) oldin keltirish holatlari (وجوه تقديم المفعول), ba'zi ikkinchi darajali bo'laklarni oldin keltirish (تقديم بعض المفعولات على بعض), qasr (القصر), qasr-cheklovning ta'rifi va uning qismlari (تعريف القصر وتقسيمه), qasrning ifrod deb nomlangan turi (قصر أفراد), qasrning qalb deb nomlangan turi (قصر قلب), qasrning ta'yin deb nomlangan turi (شرط قصر الأفراد), qasrning ifrod turining sharti (شرط قصر القلب), qasrning

yo'llari (طرق القصر), qasrning uyushiq bo'lak bilan kelishi (القصر بالعطف), qasrning bo'lishsizlik shakli va istisno bilan kelishi (القصر بالنفي والاستثناء), qasrning inma yuklamasi bilan kelishi (القصر بـ«إنما»), qasrning oldin keltirilishi (القصر بالتقديم), bo'lishsizlikning ko'pikda bilan kelishi (إنما) bilan kelishi (إنما), bo'lishsizlik va istisnoning noaniq holda keltirish (استعمال النفي والاستثناء), aniq holda keltiriladigan yuklamasini majhul o'rnida keltirish (استعمال «إنما» في تنزيل المعلوم), inma yuklamasining xususiyatlari (مزية «إنما» على العطف), inma yuklamasini ta'riz yo'lida keltirish (استعمال «إنما»), qasr bilan cheklanganso'zning istisno (أداة الاستثناء على المقصور), ko'plikni qasr bilan ifodalashning bir turi (وجه إفادة), (الاستفهام), insho (الإنشاء), so'roq gap (الاستفهام), so'roq gapning hamza bilan kelishi (الاستفهام بالهمزة) - hamza bilan kelishi (الاستفهام بـ«هل»), so'roq gapning (أقسام «هل»), so'roq gapning boshqa yuklamalar bilan ifodalanishi (الاستفهام بباقي الألفاظ), so'roq yuklamalarining so'roqdan boshqa maqsadlar uchun qo'llanilishi (استعمال الكلمات الاستفهامية في غير), buyruq fe'li (الأمْر), inkorni ifodalash (النهي), (الفصل والوصل), ajratish va qo'shish (النداء), undalma (بيان الفصل والوصل و مواردها), fasl va vaslning o'rinlari (الأحوال المقترضية), vasl-ulashtirish qilgan o'rinlar (الوصل), vasl-ulashtirish jumla o'rtasini jamlovchining turlari (تقسيم الجامع بين الجملتين), taznib-ilova keltirish (تذنيب), hol ergash gapda olmosh va [waw]ni qo'llash yoki ularni tushirib qoldirish (إيراد الضمير), (الواو وتركهما في الجملة الحالية), hozirgi zamondagi bo'lishli fe'lining bog'lovchisi bilan kelishi (امتناع), hozirgi zamondagi bo'lishsiz fe'lining bog'lovchisi bilan kelishi yoki kelmasligi (جواز إتيان الواو وتركه في المضارع المنفي), ismiy jumlaning orasada kelgan [waw] bog'lovchisi haqida (الاختلاف في الواو حين أحال جملة اسمية), musovot-tenglash (الإيجاز), iyjoz-qisqa qilish (الإيجاز), iyjozning turlari (التوشيع), itnob-cho'zish (الإطناب), tavshe' (توضيح), takmil (التكميل), takmil (التكميل), e'tiroz (2:289), [الاعتراض]

Taftazoniy ma'oniyligiga boshqa olimlar kabi isnodning darak gapdagi keladigan holatlari (أحوال), musnad ilayhning holatlari (أحوال), fe'lga bog'langan gap bo'laklarining holatlari (أحوال متعلقات), qasr (القصر), insho (الإنشاء), fasl va vasl (الفصل), va iyjoz, itnob (الإطناب), musovot (الإيجاز) bo'limlarni keltiradi.

Taftazoniy bayon ilmiga quyidagi ta'rifni keltiradi:

وهو علم يعرف به إيراد المعنى الواحد بطرق مختلفة في
وضوح الدلالة عليه

Bu – bir ma’noni turli xil yo’llar orqali aniq
yoritib berishni o’rganiladigan ilmdir.

Taftazoniy asarlarida bayon ilmi mundariyasi
quyidagicha: dalolat-ma’no ifodalashga berilgan
ta’rif va uning tasnifi (تعريف الدلالة وتقسيمه), majoz va
kinoyaning ta’rifi (تعريف المجاز والكناية), tashbeh
(التشبيه), tashbehning ruknlari (أركان التشبيه),
tashbehning ikki tomoni (طرفا التشبيه), tashbehda o’xshatilayotgan jihat
(الغرض من التشبيه), tashbehdan maqsad (الغرض من التشبيه),
ikkala tomonni hisobga olgan holdagi tashbeh
turlari (أقسام التشبيه باعتبار الطرفين), o’xshatilayotgan
jihatto’ra tashbehning turlari (أقسام التشبيه باعتبار وجه),
o’xshatish vositasiga ko’ra tashbihning turlari
(أقسام التشبيه باعتبار الأداة), tashbehning maqsadga ko’ra
turlari (أقسام التشبيه باعتبار الغرض), tashbehning kuchli
va zaifligiga ko’ra turlariga doir xulosa (خاتمة في تقسيم
الحقيقة), haqiqat va majoz (الحقيقة), haqiqatning ta’rifi
(تعريف الحقيقة), majozning ta’rifi va turlari
(تعريف المجاز وتقسيمه), haqiqat va majozning turlari
(تقسيم الحقيقة والمجاز), mursal majoz va istiora
(المجاز المرسل والاستعارة), istiora va uning turlari
(تقسيم المرسل), istiora va uning turlari (تقسيم الاستعارة),
ikkala tomonga ko’ra istioraning turlari (أقسام الاستعارة
باعتبار الطرفين), umumiy jihatga ko’ra istioraning
boshqa bir turi (تقسيم آخر للاستعارة باعتبار الجامع), istiora
qilinayotgan so’zga ko’ra istioraning yana bir turi
(تقسيم آخر للاستعارة باعتبار اللفظ المستعار), murakkab majoz
(المجاز المركب), kinoyali istiora va xayoliy istiora
haqida (في بيان الاستعارة بالكناية والاستعارة التخيلية), majoz
haqiqati haqida bahs (مباحث في حقيقة المجاز), kinoya
va majoz orasidagi farq (الفرق بين الكناية والمجاز),
kinoyaning turlari (تقسيم الكناية), imo (الإيماء), belgi,
ishora (3:235) [الإشارة].

Taftazoniy «Muhtaşaru-l-ma’āniy» asarida badi’
ilmiga quyidagi ta’rifni keltiradi:

وهو علم يُعرف به وجوه تحسين الكلام بعد رعاية المطابقة
ووضوح الدلالة.

Gapdagi ma’noning ravshanligini hamda
vaziyatga muvofiqligini ta’minlangandan so’ng
nutqni go’zallashtirish jihatlarini o’rganiladigan ilmdir.

Badi’ ilmini Taftazoniy quyidagicha tahlil
qilgan: nutqni go’zallashtirish usullari (وجه تحسين
الكلام), ma’naviy san’atlar (المحسنات المعنوية), mutobaqa
(المطابقة), nazirga rioya qilish (مراعاة النظير), irsod
(المزاوجة), mushokala (المشكلة), muzovaja (المزوجة),
aks (العكس), ruju’ (الرجوع), tavriya (التورية), istixdom
(الاستخدام), laff va nashr (اللف والنشر), ko’plik (الجمع),
tafriq (التفريق), taqsim (التقسيم), jamning tafriq bilan
kelishi (الجمع مع التفريق), jamning taqsim bilan kelishi

(التجريد), maqbul mubolag’a (الجمع مع التقسيم),
tafiri’ (التفريع), husnu ta’dil (حسن التعليل), (المبالغة المقبولة),
madhni yomonlashga o’xshatib ta’kidlash (تأكيد المدح
تأكيد), zamni madhga o’xshatib ta’kidlash (بما يشبه الذم
الإدماج), idmoj (الاستتباع), (الذم بما يشبه المدح),
tavjih (التوجيه), jiddiylikni ifodalovchi hazl (الهزل الذي
يراد به الجد), xabardor kishining o’zini bilmaslikka
olishi (تجاهل العارف), itrod (الإطراد), lafziy san’atlar
(المحسنات اللفظية), jinos (الجناس), avvaldan ojizlikni
to’sish (رد العجز على الصدر), saj’ (السجع), muvozana
(الموازنة), qalb (القلب), tashri’ (التشريع), lozim bo’lmagan
narsaning lozim holda kelishi [2:316] (لزوم ما لا يلزم).

Bu ilm san’at hosil qilishdagi xususiyatiga ko’ra
ikki guruhga ajratiladi. Birinchisi, so’zning tovush
jihatinini e’tiborga olib hosil qilinadigan san’atlar
bo’lib, ular «lafziy go’zalliklar» (al-muḥassanātu-l-lafziyya –
المحسنات اللفظية) deb ataladi. Ikkinchisi,
so’zning ma’no jihatiga ko’ra hosil qilinadigan
ma’noviy san’atlar bo’lib, ular «ma’no go’zalliklari»
(al-muḥassanātu-l-ma’nāviyya – المحسنات المعنوية) deb
nomlanadi.

«Muhtaşaru-l-ma’āniy»ning qo’lyozma
nuxsalarini:

O’zR FA Sharqshunoslik instituti fondida
saqlanadigan qo’lyozmalar:

13228/1 raqam ostida saqlangan, o’lchami
26x17,5 mm., satri 17 bo’lgan nusxa, 230 (1b–293a)
varaq. Sharq qog’oziga 1292/1875-yilda nasx xatida
ko’chirilgan.

10683/7 raqam ostida saqlangan, o’lchami
2x17mm., satri 24 bo’lgan nusxa, 107 (92b–199b)
varaq. Sharq qog’oziga 820/1417-yilda nasx xatida
ko’chirilgan.

6021 raqam ostida saqlangan, o’lchami 26,5x17
mm., satri 19 bo’lgan nusxa, 155 varaq. Sharq
qog’oziga 1248/1832-yilda nasx xatida ko’chirilgan.

4121/1 raqam ostida saqlangan, o’lchami
22x12,5 mm., satri 23 bo’lgan nusxa, 156 (1b–156b)
varaq. Sharq qog’oziga 958/1551-yilda nasx xatida
ko’chirilgan.

7223/1 raqam ostida saqlangan, o’lchami
21,5x16 mm., satri 17 bo’lgan nusxa, 309 (1b–309b)
varaq. Sharq qog’oziga 1308/1890-yilda nasx xatida
ko’chirilgan. Mazkur nusxa O’zR FA Sharqshunoslik
instituti fondida saqlanadi.

229 raqam ostida saqlangan, o’lchami 13,5x22
mm., satri 18 bo’lgan nusxa, 201 varaq. Sharq
qog’oziga nasx xatida ko’chirilgan. Mazkur nusxa
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi Manbalar
xazinasini.

392 raqam ostida saqlangan, o'lchami 14x23 mm., satri 18 bo'lgan nusxa, 38 varaq. Sharq qog'oziga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Mazkur nusxa O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida saqlanadi.

Taftazoniy «ma'no go'zalliklari»ni ifodalovchi (المحسنات اللغوية) san'atlarni gapda ifodalanishi kerak bo'lgan asosiy jihat bo'lganligi sababli birinchi keltiradi.

NATIJA

Sa'duddin Taftazoniyni balog'at ilmiga oid merosini chuqur o'rganish orqali uning arab tilshunosligi va adabiyotshunosligi taraqqiyotiga qo'shgan hissi, balog'at ilmining ma'oni, bayon va badi' deb nomlanuvchi tarmoqlarining yoritilishidagi prinsiplari hamda o'ziga xos jihatlari ilmiy dalillar orqali ochib berilgan; Taftazoniy tomonidan qasr, iltifot va at-tashbihi-l-mashrut usullarining ta'riflariga aniqlik kiritilgani va ularning funksional xususiyatlari yoritilgan; Sa'duddin Taftazoniyni balog'at ilmiga oid «Muṭawwal», «Muḥtasaru-l-ma'āniy», «Sharhu-l-miftāḥ» asarlarining bir-biridan farqli jihati, Taftazoniyni istiora, itnob, kinoya, muhassanat badi'iyya va muhassanat makniyya kabi balog'at masalalariga yondashuvi asoslab berilgan. Tadqiqot davomida «Muṭawwal» asariga 38 ta hoshiya yozilgani, Turkiya, Eron, Misr, O'mon davlatlari ilmiy fondlarida 100 dan ortiq qo'lyozma nusxalari mavjud ekani aniqlandi.

XULOSA

Sa'duddin Taftazoniy balog'atga oid asarlarni sharh qilishda aniqlikka juda katta e'tibor qaratgan va o'zi sharh qilayotgan asarlarning mualliflari tomonidan yozilgan qo'lyozma nusxalaridan foydalangan. U balog'atga oid uchinchi asari «Sharhu-l-miftah» ning ba'zi o'rinlarida avval yozgan ikki asari «Muṭawwal» va «Muḥtasaru-l-ma'āniy» da qo'llagan uslubidan o'zgacha yondashgan. Unda ilmiy tahlillarni va misollarni ko'paytirgan. Unda balog'atga oid juda nozik masalalarni ham keltirgan. Sa'duddin Taftazoniy o'zining ikkinchi sharhi «Muḥtasaru-l-ma'āniy» da avval yozgan sharh asari «Muṭawwal» ni muxtasar qilish bilan birga unga balog'atga oid qo'shimcha yangiliklar ham kiritgan va ularni rivojlantirgan. Taftazoniyni balog'atga

oid asarlari mundarijasi, har uchala asarda bir xil. Mundarija bir-birini takrorlasa-da, asosiy o'zgarishlar asar matnida o'z aksini topgan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sa'duddin Taftazoniy. (2013). Ash-Sharhu-l-mutavval li talkhisi-l-miftah. Bayrut: Dar Al-Kutub Al-Ilmiyya.
2. Saduddin Taftazoniy. (2017). Mukhtasaru-l-maaniy sharh kitabi talkhis-l-miftahi. Istanbul: Dar ash-Shifo.
3. Saduddin Taftazoniy. (2020). Sharhu Miftahi-l-ulumi. Damashq: Dar At-Taqva.
4. Ibn Bahr Johiz. (2006). Kitab Al-bayan vat tabyiin. An-Nur kutubxonasi.
5. Jurjoni. (2005). Daloil al-e'joz fi-l-maoni. Qohira: At-Tavfiqiyya kutubxonasi.
6. Abu Yaqub Sakkokiy. (1999). Miftah al-Ulum. Qohira.
7. Jaloliddin Qazvini. (2003). Al-Izoh fi ulumi-l-balag'a. Livan: Dar Al-Kutub Al-Ilmiyya.
8. Bakri Shayx Amin. (1984). Al-Balag'a Al-Arobiyya fi savbiha aljadid. Bayrut.
9. Abdulaziz Atiq. (2015). Ilm al-badi. Bayrut: Dar Al Nahda Al Arabiya.
10. Badavi Tabana. (1988). Mu'jam al-balag'a al-arobiyya. Uchinchi nashr. Jidda: Dar al-Manara.
11. Abu Yaqub Sakkokiy. (1999). Miftah al-ulum . Al-Bayam-al-Maani-al-badi. Qohira.
12. Ahmad al-Hoshimiy. (2008). «Javohir al-Balag'a». Bayrut: Dar Al-Ihya.
13. Fanoriy. (2007).. Al-Hashiya ala-l-Mutavval. Bayrut: Dar Kutub.
14. Abdulqohir Jurjoni. (1991). Asroru-l-balag'a. Jidda: Dar Al Madani.
15. Jaloliddin Suyutiy. (1967). Bug'yatul Vuot. Misr.
16. Shavqiy Doyf. (2008). Al-Balag'a at-tovvur vat-t-tarix. Bayrut.
17. Abdulaziz Atiq. (1986). Ilmul maoniy. – Bayrut: Dar An-Nahda Al-Arabi.
18. Abdulaziz Atiq. (2015). Ilmul Badi' – Bayrut: Dar Al Nahda Al Arabiya.
19. Abdulaziz Atiq. (1985). Ilmul Bayon. Bayrut: Dar An-Nahda Al-Arabi.
20. Muhammad Abu Fadl Ali Muhammad Bag'aviy. (1952). Harbiy, Kitob as-Sana'tayn. Qohira.
21. Muhammad Ibn Haydar Bag'dodiy. (1989). Ritorika qonuni. Bayrut.
22. Mehmed Abdurrahmon. (1309). Tertib-i Cedid Belagat-i Usmoniyye, Istanbul.
23. Abdurrahmon Fehmi. (1304). Medresetu'l-Arab, Istanbul.
24. Nasrulloh Hacimüftüoğlu. (1988). «Belâgat Ekolleri va Anadolu Belagat Çalışmaları», EAÜİFD, VIII.
25. Fazl Hasan. (1997). Al-Balag'a - fununuha wa afnaanuha. O'mon: Dar al-Furqan.

REFERENCES

1. Sa'duddin Taftazani. (2013). *Ash-sharhu-l-mutawwal li talkhisi-l-miftah*. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
2. Sa'duddin Taftazani. (2017). *Mukhtasaru-l-maani sharh kitabi talkhisi-l-miftah*. Istanbul: Dar ash-Shifa.
3. Sa'duddin Taftazani. (2020). *Sharh Miftahi-l-ulum*. Damashq: Dar at-Taqva.
4. Ibn Bahr Jahiz. (2006). *Kitab Al-bayan wat tabyin*. An-Nur Library.
5. Jurjani. (2005). *Dalail al-i'jaz fi-l-maani*. Cairo: At-Tawfiqiyya Library.
6. Abu Ya'qub Sakkaki. (1999). *Miftah al-ulum*. Cairo.
7. Jalaluddin Qazvini. (2003). *Al-Idah fi ulumi-l-balagha*. Livan: Dar Al-Kutub Al-Ilmiyya.
8. Bakri Shaikh Amin. (1984). *Al-Balagha Al-Arabiyya fi sawbiha al-jadid*. Beirut.
9. Abdulaziz Atiq. (2015). *Badi ilmi*. Beirut: Dar Al Nahda Al-Arabiya.
10. Badawi Tabana. (1988). *Mu'jam al-Balagha al-arabiyya*. Third edition. Jeddah: Dar al-Manara.
11. Abu Yaqub Sakkaki. (1999). *Miftah Al-Ulum. Al-Bayam-al-Maani-al-Badi'*. Cairo.
12. Ahmad al-Hashimi. (2008). *Jawahir al-Balagha*. Beirut: Dar Al-Ihya.
13. Fanari. (2007). *Al-Hashiya ala-l-Mutawwal*. Beirut: Dar Kutub.
14. Abdulqahir Jurjani. (1991). *Asrar al-Balagha*. Jeddah: Dar Al Madani.
15. Jalaluddin Suyuti. (1967). *Bughyat al-Wuat*. Egypt.
16. Shawqi Daif. (2008). *Al-Balagha at-tawwur wat-tarikh*. Beirut.
17. Abdulaziz Atiq. (1986). *Ilmul maani*. – Beirut: Dar An-Nahda Al-Arabiya.
18. Abdulaziz Atiq. (2015). *Ilmul Badi'*. Beirut: Dar Al-Nahda Al-Arabiya.
19. Abdulaziz Atiq. (1985). *Ilmul Bayan*. Beirut: Dar An-Nahda Al-Arabiya.
20. Muhammad Abu Fadl Ali Muhammad Baghawi. (1952). *Harbi, Kitab as-Sana'tayn*. Cairo.
21. Muhammad Ibn Haydar Baghdadi. (1989). *Ritorika qonuni*. Beirut.
22. Mehmed Abdurrahmon. (1309). *Tertib-i Cedid Belagat-i Osmaniyye*, Istanbul.
23. Abdurahman Fehmi. (1304). *Medresetu'l-Arab*, Istanbul.
24. Nasrulloh Hacimüftüoğlu. (1988). «Belâgat Ekolleri va Anadolu Belagat Çalışmaları», EAÜİFD, VIII.
25. Fadl Hasan. (1997). *Al-Balagha - fununuha wa afnaanuha*. Omman: Dar al-Furqan.

